

**XII ASR BOSHIDA XORAZM DAVLATIDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY  
VAZIYAT**

**Karimova Dilafruz**

*Andijon Ichki Ishlar akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada markazlashgan mo'g'ullar davlatining tashkil topishi va XII asr boshida Xorazm davlatidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat muhokama etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Xorazm, mo'g'ullar davlati, siyosiy tuzum, ijtimoiy hayot.*

**ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ СИТУАЦИЯ В ХОРАЗМСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕ В НАЧАЛЕ XII ВЕКА**

**Аннотация:** в данной статье рассматривается становление централизованного Монгольского государства и общественно-политическая ситуация в Хорезмском государстве в начале XII века.

**Ключевые слова:** Хорезм, Монгольское государство, политический строй, общественная жизнь.

XI-XII asrlarda mo'g'ullar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy xayotda qoloq xisoblanar edi. Ularda xali urug'-aymoqchilik munosabatlari kuchli bo'lib, asosan chorvachilik, ovchilik va o'zaro tovar ayirboshlash, savdo-sotiq bilan shug'ullanib kelishgan.

XII asr oxiri XIII acr boshlarida mo'g'ul urug' boshliqlari orasida ichki kurashlar avj oldi. Bu kurashlarda Temuchin ismli baxodir g'olib chiqib, 1204-1205 yillarda ko'chmanchi chorvador urug'larni siyosiy jixatdan birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. 1206 yilda u Onon daryosining yuqori qismida qurultoy chaqirdi. Bu qurultoyda Temuchinga Chingizzon unvoni berildi, ya'ni kuchli, qattiq, shiddatli dengizdek xon ma'nosini bildirgan. Ana shu tariqa Temuchin ko'p sonli jangari kabilalar sultanatining kuchli xukmdoriga aylandi. Bu sultanat qudratining o'zagini Chingizzon yurgizgan qattiqqo'l va xuquqiy jixatdan asoslangan, markazlashgan siyosat tashkil etdi. Diniy va ijtimoiy faoliyatning barcha soxalarini o'z ichiga olgan bu xuquqiy siyosat 1206 yildagi qurultoyda qabul qilingan "Yaso" qonunida asoslab berilgan edi. Taqidlash joizki, "Yaso" ko'p yillik xayot tajribasi, qabila va urug'larning urfu-odati, an'anasi, o'zini oqlagan udumlar asosida tuzilgan edi. Mintaqqa tarixida dastlab xuquqiy xujjat bo'lganligi bois "Yaso" moxiyatiga bir oz to'xtalmoq lozim. Unda: - xonning vazifalari va xuquqlari belgilangan. Xattoki ulug' xon o'z burchini to'liq bajarmasa, uni xokimiyatdan chetlashtirish fikri ham aks ettirilgan; - qo'shinni tashkil etish tamoyillari yoritilgan. (o'n, yuz, ming, tuman...) tizimi uzoq asrlar davomida qator mamlakatlarda qo'llanilgan. O'ziga xos holat shundaki, qo'shinga davlatning hech qanday mablag' xarajati ko'zda tutilmagan bo'lib, har qaysi jangchi o'z ovqati, quroli, zarur buyum va anjomlari uchun o'zi qayg'urishi kerak bo'lgan. Ya'ni yashash va kurash mezoni olinadigan o'ljaga

bog'liq qilib qo'yilgan, xayotiy zarurat darajasiga ko'tarilgan edi. Jang uslubi oddiy, yoppasiga, birvaraqayiga xujumga o'tishga asoslangan bo'lib, qo'rkoqlik, sotqinlik qattiq jazoga tortilar edi; - jazo choralar aks ettirilgan. Suvni yoki sutni ataylab to'qib yuborish dasht sharoitida qechirilmas jinoyat sifatida qoralanar edi. O'g'rilik, ochiq talon-tarajlik razil odat sanalar, o'g'irlangan mol to'qqiz barobar miqdorida o'ndirib olinardi; - ayollar xuquqlari ta'qidlangan. Xususan, urush sharoitida avlodlar kelajagini ta'minlash sifatida baxolangan ayollarning o'z eriga xiyonati qonun tomonidan kechirilgan. "Yaso" qoidalarini xamma bajarishi shart emasdi. Mamlakat oldidagi buyuk xizmatlari uchun shaxsan Chingizzon marxamatiga erishib "tarxon" unvoniga ega amaldorlar uni xatto 9 marta buzishlari mumkin bo'lган. Birinchi qurultoydayok bir necha kishi ana shunday unvonga ega bo'lishi bu davlatning naqadar tabaqalanganligini ko'rsatadi. "Yaso"ning e'lon qilinishi Chingizzonning mutloq xukmdorligini, o'ta qattiq intizomli va kuchli xarbiylashgan mamlakatning yuzaga kelganligini isbotlaydi. Iqir-chiqirlarigacha mukammal ishlab chiqilgan va xarakatga keltirilgan bu ulkan "mashina" o'zga davlatlar uchun jiddiy xavf edi. Chingizzon qo'shinlari turli qismga bo'lingan edi. O'n jangchiga bir boshliq-o'nboshi, yuzboshi, mingboshi va tumanboshilar qo'yilgan. Davlat unvonlari va mansablar-ulug', o'rtalik va kichik xokimlar dorugalar, oliv va quyi xokimlardan iborat bo'lган. Chingizzon davlatining poytaxti Qoraqurum edi. Yozuv va o'qishdan bexabar bo'lган xon bu boradagi davlat ishlarida uyg'urlar va savdogarlar xizmatidan keng foydalanar edi. Chingizzon 1207 yilda o'z mamlakatining shimoliy erlarini, 1207-1208 yillarda Enisoy daryosi xavzasini, 1211-1215 yillarda Xitoyni egalladi. Ayniqsa Sin sulolasining qulatilishi va uning natijasida erishilgan bexisob xarbiy o'lja va boylik, zamonaviy jang asboblari va uskunalar Chingizzon qo'shinini yangi yurishlarga ilxomlantirdi. Mug'ullar davlati qisqa muddat ichida O'rta Osiyodagi Xorazmshoxlar davlatiga chegaradosh mamlakatga aylandi. Xorazmshoxlar davlatining xukmdori Alovuddin Muxammad uzoq yillar davomida qo'shni davlatlar ustiga muvaffaqiyatli xarbiy yurishlarni amalga oshirib, Ozarbayjon, Eron, Qurdiston, Iroq erlarini qo'lga kiritgan, salkam 400 ming kishilik qo'shinga ega edi. G'alabalar uning shuxratparast qalbida katta ishonch, g'urur va shu bilan birga balandparvoz xislarni uyg'otgandi. O'zini "xudoning erdag'i soyasi", "ikkinchi Iskandar" deb atab yurgan Muxammad xam Xitoya ko'z tikkandi. Boz ustiga Muxammadning siyosiy mavqeい pasayib borar, o'llkadagi ijtimoiy ahvol esa notinch edi. Shox bir qator zaifliklarga ega bo'lganki, bu muvaffakiyatlar davrida uncha sezilmas, ammo jiddiy xarbiy sharoitda real xavf kasb etardi<sup>13</sup>

Xususan, Muxammad qipchoqlardan bo'lган qator lashkarboshilarga ishonmas, taxtga ko'z tikkan onasi Turkon xotin va uning saroyiga tiqishtirilgan qarindoshlari bilan chiqishmas, din peshvolarini o'z xarakatlari tufayli qattiq ranjitgan edi. Xalq qo'zg'olonlarini (1210 y Samarqand qo'zg'oloni) shafqastizlik bilan bostirgani, soliqlar zulmi, turmush darajasining pastligi uni oddiy halqdan juda uzoqlashtirgandi. Shunday

siyosiy sharoitda Chingizzon va Xorazmshox davlatlari o'rtasida elchilik munosabatlari o'rnatildi. 1216 yil Chingizzon xuzuriga Xorazmshox o'z elchilarini oboradi. O'zaro totuvlik va do'stlik qaror topib, ikki davlat xududlarda sovdogarlarning erkin qatnoviga xoxish bildirildi. So'ng, 1218 yili Xorazmshox yangi elchilarni yuboradi. Bunga javoban Chingizzon Maximud Yalovoch boshchiligidagi Xorazmshox davlatiga elchi yuboradi. Ammo mo'nosabatlar borgan sari keskinlashib bormoqda edi. 1218 yil Chingizzon Xorazmga navbatdagi 500 tuya xamda 450 savdogarlardan iborat savdo karvonini jo'natadi. Biroq Utror noibi Inalxonning farmoniga ko'ra, karvon talanadi. Savdogarlar qirib tashlanadi. Chingizzon bu vokeadan nixoyatda dargazab bo'lsada, g'azabini bosib, Ibn Kufroj Bug'roni ikki ishonchli mulozim kuzatuvchilar bilan birga Xorazmshox xuzuriga elchi qilib yuboradi. Chingizzon aybdorni jazolash, Inalxonne unga topshirishni talab qiladi. Xorazmshox Chingizzonning talabiga javoban elchini o'ldirishni va ikki mulozimni soqol-moylovini qirib sharmandali qilib qaytarib yuborishni buyuradi. Bu voqealar ikki davlat o'rtasida xarbiy to'qnashuv mukarrar ekanligini ko'rsatadi. Xorazm mamlakatining xarbiy qudrati, geografik xolati davlat boshqaruvidagi qarama-qarshilik va zaifliklarini obdon o'rgangan Chingizzon ijtimoiy-siyosiy vaziyat urush uchun nixoyatda qulay ekanini tushunadi xamda 1218 -yili chaqirilgan navbatdagi Qurultoyda xarbiy xarakatlar taktikasini ishlab chiqadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirzo Muhammad Haydar. «Tarixi Rashidiy» — Т.: 1996.
2. Sagdullaev A. S. va boshq. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. Toshkent.: "Akademiya". 2000.
3. Маджидова, Р. У., Мухитдинова, Х. С., & Оманов, П. Х. РОЛЬ ЛИНГВОСТРАНОВЕДЧЕСКИХ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ СРЕДСТВ В ПРЕПОДАВАНИИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО. "ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОЛЛАРИ" 7-ҚИСМ, 149.
4. Маджидова, Р. У. (2019). Антропоцентризм и аксиологическая картина мира. Наука, техника и образование, (6 (59)), 67-71.
5. Majidova, R. U. (2023). LANGUAGE AS A COMMUNICATION TOOL: UNDERSTANDING ITS FUNCTIONS AND IMPLICATIONS. " GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS, 9(1).
6. Маджидова, Р. (2018). РЕЧЕВОЕ ПОВЕДЕНИЕ ЧЕЛОВЕКА В СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ И ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ ТРАКТОВКАХ. Farg'onan davlat universiteti, (1), 20-20.
7. Urishevna, M. R. (2019). Representation of the linguistic world picture through a human factor. RELIGACIÓN. Revista de Ciencias Sociales y Humanidades, 4(15), 234-240.

8. Isamutdinova, D. (2024). COMPARISONS AS REFLECTIONS OF HUMAN CULTURE AND THOUGHT. Innovations in Technology and Science Education, 3(20), 194-198.
9. Isamutdinova, D. (2024, October). MILLIY TARIX VA MADANIYATNI AKS ETTIRUVCHISI SIFATIDA O'XSHATISHLAR. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS (Vol. 1, No. 9, pp. 38-41).
10. Marifjanovna, I. D. (2024). INGLIZ TILINI ORGANISHNING SAMARALI USULLARI. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(28), 36-37.
11. Marifjanovna, I. D. (2024). NEMIS TILINI ORGANISHNING SAMARALI USULLARI. PEDAGOG, 7(9), 138-139.
12. Maripfjanovna, I. D. (2024, June). The Importance of Poems and Songs in the Development of German Vocabulary in Young Children. In Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences (USA) (Vol. 8, pp. 1-3).
13. Suyarov, A. (2023). INNOVATSION USULLAR-TALABALARLING TA'LIM VA KOGNITIV FAOLIYATINI TASHKIL ETTIRISHNING YANGI TARZI. Philological issues are in the eyes of young researchers, 1(1).
14. Suyarov, A., & Axmadov, H. TOG JINSLARI VA ULARNING FIZIKAVIY-MEXANIKAVIY XOSSALARI. ТОШКЕХТ-2021, 28.
15. Rasulova, A. M., & Xusanova, M. (2022). 'Rifat Axmadjonovna POETIK NUTQDA SINONIMLARDAN FOYDALANISH MAHORATI.
16. 20. Ahmadjonovna, K. M. (2024, February). XORIJUY TILNI OSON VA QIZIQARLI O 'RGANISH TO 'G 'RISIDA. In Formation and Development of Pedagogical Creativity: International Scientific-Practical Conference (Belgium) (Vol. 4, pp. 20-23).
17. Xusanova, M. (2023). SOMATIK KODLAR TADQIQIGA DOIR. Farg'ona davlat universiteti, (1), 163-163.
18. Rasulova, A. (2023). FARIDA AFRO 'Z SHE'RIY ASARLARIDA OMONIMLARNING ROLI. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(9), 116-120.
19. Toshtemirovna, M. K. (2023). OBSTETRIC TACTICS DURING COVID-19 DISEASE. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(12), 366-368.
20. Axmadjonovna, X. M. R., & Alijonovna, A. G. (2023). TIL ESTETIKASIGA DOIR. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(3), 262-265.
21. Rasulova, A. M., & Xusanova, M. R. A. (2022). POETIK NUTQDA SINONIMLARDAN FOYDALANISH MAHORATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 807-811.